



## 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3577,9 mlrd.so'mni**, o'sish **7,7 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **112,9 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **46,3 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **51,9 %**


2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3577,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 7,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 92,0 % ga va tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 48,6 % ga o'sishi hisoblanadi.

### 2018 yil yanvar- oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



## 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o`shishiga qo`shgan hissasi



### **Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 48,6 % ga oshganligini kuzatish mumkin.





### **Qayta ishlash sanoat**

Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2203,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 61,6 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga oshganligi kuzatildi.

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1241,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 34,7 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish sur'ati 7,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek 2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda: suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 92,0 % ga, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish 38,0 % ga, hamda ichimliklar ishlab chiqarish sanoati 31,6 % ga oshganligi kuzatildi.




**Yanvar- oktyabr oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	2017 yil	2018 yil	2017 yil yanvar- oktyabriga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	6,9	6,4	92,2
Paxta tolasi, ming tonna	41,8	32,7	78,1
Aroq – mig litr 100 % spirt	887,9	825,8	93,0
Elektr energiyasi, mlrd kvv/s	12,6	12,9	102,4
Paxta urug'i, ming tonna	67,0	51,8	77,3
Kalava ip, tonna	4000,7	3586,7	89,7
Sellyuloza, ming kg 90%	1479,9	578,0	39,1
Un, ming tonna	29,6	30,0	98,6
Kunjara, ming tonna	29,5	32,1	91,9

***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1656,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 12,9 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 46,3 % ni tashkil etdi.

## 2018 yilning yanvar- oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 37,5 % dan 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida 38,9 % ga oshishi kuzatilmoqda.


### Yanvar- oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



## Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 1188,1 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 33,2 % ulushini), Sirdaryo tumani 754,5 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,1 % ulushini), Guliston shahri 543,4 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,2 % ulushini), Boyovut 247,0 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,9 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### 2018 yilning yanvar- oktyabr oyida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Shu bilan birga eng kam ulush Xovos tumani 87,5 mlrd so'm (2,4 %), Sardoba tumani 88,5 mlrd so'm (2,5 %) va Guliston tumani 70,6 mlrd so'm (2,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

**2018 yilning yanvar- oktyabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 4358,5 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 64221,2 ming so'm, Guliston shahrida 6140,3 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**2018 yilning yanvar- oktyabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,**




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Mirzaobod tumanida 147,6%, Yangiyer shahrida 127,2 % hamda Guliston shahrida 119,9%. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Guliston tumanida 81,1%, Boyovut tumanida 73,2% ni tashkil etgan.

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1855,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 51,9 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 110,6 foizni tashkil qilgan.

### 2018 yil yanvar-oktyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi  
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: U.To'rayev  
Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23